



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 356 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlolova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajan Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
<i>Masharipova Kumushoy Amin qizi</i>	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
<i>Mavlonova Dildora Shukhrat kizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
<i>N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova</i>	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
<i>Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich</i>	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
<i>Rajabova Shaxlo Shodmonovna</i>	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
<i>Ramazonova Salomat Saidovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
<i>Saidova Gulruh Halim qizi</i>	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
<i>Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna</i>	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
<i>Xakimova Dildora Mashrabjonovna</i>	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
<i>Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна</i>	
Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida	257
<i>Rashidova Gulnoza G'ulomovna</i>	
Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati	261
<i>Xaydarov Sulaymon Amirqulovich</i>	
Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar	265
<i>Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li</i>	
Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari	268
<i>Abduraximov Asror Sultonali o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	271
<i>Adizova Nilufar Quvondiq qizi</i>	
Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati	274
<i>Alimov Asadulla Urokbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri	278
<i>Alimova Umida Jumaboy qizi</i>	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi	282
<i>Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi	286
<i>Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish	289
<i>Islomova Xafiza Azamatovna</i>	
Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish	293
<i>Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi</i>	
Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri	298
<i>Kozimova Nargiza Istam qizi</i>	
Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili	303
<i>Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna</i>	
Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv	309
<i>Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi</i>	



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari	313
Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi	
Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari	317
Muzaffarova Farida Muxtor qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari	321
Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi	
Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi.....	324
Ramazonov Jahongir Djalolovich	
Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar	328
Sadinov Otabek Vaxodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri.....	332
Shahobiddinova Zilola Orif qizi	
Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri	335
Shirinov Otabek Tuvalovich	
Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish.....	338
Suyarov Kusharbay Tashbayevich	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati	342
Saipova Hilola Abduhamitovna	
"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun.....	346
Tangirov Zoir Xo'jakulovich	
Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi.....	350
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	
Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'alarining uzluksiz rivojlanishi ..	353
Seytanov Bayrambay	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARIDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH ORQALI ADABIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Islomova Xafiza Azamatovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida adabiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanishning metodik va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Adabiy kompetensiya zamonaviy pedagog kadrlar uchun faqat badiiy asarlarni tahlil qilish yoki adabiy bilimlarni egallashni emas, balki o'quvchilarga estetik didni shakllantirish, o'qish madaniyatini rivojlantirish va interfaol metodlar yordamida adabiyotni o'rgatishni ham anglatadi. Maqolada raqamli platformalar (Google Classroom, Kahoot, Padlet, Canva, elektron kutubxonalar), virtual darslar va multimedia vositalarining adabiy ta'limdagi o'rni, shuningdek, ularning o'qituvchilar tayyorlovida samarali qo'llanish usullari yoritiladi. Raqamli vositalar yordamida o'qituvchilarda kreativ yondashuv, interaktiv tahlil, tanqidiy fikrlash va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: adabiy kompetensiya, raqamli resurslar, bo'lajak o'qituvchilar, boshlang'ich ta'lim, interfaol ta'lim, elektron kutubxona, multimedia texnologiyalari, kreativ pedagogika.

Abstract: This article analyzes the methodological and practical foundations of using digital resources in the process of developing literary competence in future primary education teachers. For modern pedagogical staff, literary competence means not only analyzing works of art or acquiring literary knowledge, but also forming aesthetic taste in students, developing a reading culture, and teaching literature using interactive methods. The article highlights the role of digital platforms (Google Classroom, Kahoot, Padlet, Canva, electronic libraries), virtual lessons, and multimedia tools in literary education, as well as methods for their effective use in teacher training. The possibilities of developing a creative approach, interactive analysis, critical thinking, and communicative skills in teachers using digital tools are discussed.

Key words: literary competence, digital resources, future teachers, primary education, interactive education, electronic library, multimedia technologies, creative pedagogy.

Аннотация: В статье анализируются методические и практические основы использования цифровых ресурсов в процессе развития литературной компетентности будущих учителей начальных классов. Для современных педагогических кадров литературная компетентность означает не только анализ художественных произведений или приобретение литературных знаний, но и формирование эстетического вкуса учащихся, развитие культуры чтения и преподавание литературы с использованием интерактивных методов. В статье освещается роль цифровых платформ (Google Classroom, Kahoot, Padlet, Canva, электронные библиотеки), виртуальных уроков и мультимедийных инструментов в литературном образовании, а также методы их эффективного использования в подготовке учителей. Обсуждаются возможности развития творческого подхода, интерактивного анализа, критического мышления и коммуникативных навыков у учителей с помощью цифровых инструментов.

Ключевые слова: литературная компетентность, цифровые ресурсы, будущие учителя, начальное образование, интерактивное образование, электронная библиотека, мультимедийные технологии, креативная педагогика.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo'lmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim sohasida faoliyat yuritadigan bo'lajak o'qituvchilarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida tayyorlash bugungi kun talabiga aylangan. Chunki yosh avlodni faqat an'anaviy usullar bilan ta'lim va tarbiyalash raqobatbardosh, kreativ va mustaqil fikrlaydigan shaxslarni shakllantirish uchun yetarli emas. Shuning uchun, pedagogika jarayonida raqamli resurslardan foydalanish – elektron platformalar, virtual kutubxonalar, interfaol dasturlar va multimedia

vositalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun muhim kompetensiyalardan biriga aylanmoqda.

Adabiy kompetensiya esa zamonaviy o'qituvchining asosiy kasbiy sifatlaridan biridir. Bu tushuncha faqat adabiy asarlarni o'qish va ularning mazmunini anglash bilan cheklanmay, balki o'quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirish, matnni chuqur tahlil qilish, o'quvchini o'qishga rag'batlantirish va ijodiy fikrlashga o'rgatishni ham qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarni adabiy kompetensiyaga ega qilish uchun raqamli resurslardan foydalanish ularning kasbiy mahoratini oshiradi, darslarni qiziqarli va interfaol tashkil etish imkonini beradi, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hasanovning ta'kidlashicha, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'qituvchilarning metodik salohiyatini oshirib, darslarni yanada samarali va interfaol tashkil etishga imkon beradi ^[1]. Muallif "Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar" (2021) asarida raqamli vositalardan foydalanish orqali adabiy ta'limda o'quvchilarning qiziqishi va estetik didini rivojlantirish mumkinligini alohida qayd etadi.

Xolmatovning fikricha, zamonaviy raqamli pedagogika o'qituvchilarning faqat texnik ko'nikmalarini emas, balki kreativ yondashuv va mustaqil ishlash salohiyatini ham oshiradi ^[2]. Uning "Raqamli pedagogika asoslari" (2022) asarida raqamli resurslarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish usullari, shu jumladan, elektron platformalar va mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari batafsil yoritilgan.

Karimovanning ta'kidlashicha, adabiy ta'lim metodikasida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat bilim, balki kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv asosida tayyorlashga xizmat qiladi ^[3]. "Adabiy ta'lim metodikasi" (2020) asarida muallif adabiyot darslarida multimedia vositalari va elektron kutubxonalar yordamida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish usullarini ko'rsatadi.

Almazova va hamkorlarining "The Integration of Digital Resources in Language and Literature Education" (2021) tadqiqotida raqamli platformalar va multimedia vositalari yordamida adabiy va til ta'limining interfaol-ligi oshirilishi, talabalar va bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari keng tahlil qilinadi ^[6]. Mualliflar ta'kidlashicha, bunday yondashuv ta'lim jarayonida nafaqat bilim, balki madaniy-estetik kompetensiyani shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun raqamli texnologiyalar adabiy ta'lim jarayonini faollashtiruvchi kuchli vosita hisoblanadi. Google Classroom, Moodle kabi platformalar orqali o'quvchilar bilan onlayn muloqot qilish, elektron materiallarni ulashish va adabiy tahlil uchun interfaol testlar yaratish mumkin. Kahoot va Quizizz kabi o'yin elementlariga asoslangan resurslar esa adabiyot darslarini o'quvchilar uchun yanada qiziqarli qiladi, motivatsiyani oshiradi. Shu tarzda, bo'lajak o'qituvchilar nafaqat adabiy bilimlarni egallaydi, balki o'quvchilar uchun zamonaviy metodlarni qo'llashga tayyorlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli resurslardan foydalanish nafaqat o'quv jarayonini zamonaviylashtiradi, balki ularni o'qituvchi sifatida ijodkor, innovatsion va interaktiv ta'lim muhitini yaratishga tayyorlaydi. Bunda nafaqat elektron platformalar va kutubxonalar, balki virtual laboratoriyalar, onlayn loyihalar, multimediya tahlil vositalari va xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodlar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu jarayonning samaradorligini baholash uchun raqamli resurslardan foydalanishning uch asosiy yo'nalishi ajratiladi:

1. Adabiy matnlarni o'rganish va tahlil qilishni raqamlashtirish (elektron kutubxonalar, audiokitoblar, interfaol izohli matnlar).
2. Interaktiv o'qitish va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish (Kahoot, Mentimeter, Padlet orqali adabiy o'yinlar, viktorinalar).
3. Adabiy tahlilda vizualizatsiya va kreativ loyihalar (Canva, Genially, Prezi kabi vositalar yordamida grafik xaritalar, prezentatsiyalar, mualliflik videoproektlari tayyorlash).



Quyidagi jadvalda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida adabiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli vositalar va ularning imkoniyatlari tahlil qilinadi:

1-jadval: Adabiy kompetensiyani rivojlantirishda qo'llaniladigan raqamli vositalar va ularning o'quv jarayonidagi funksiyalari

Raqamli vosita	Asosiy vazifasi	Bo'lajak o'qituvchilar uchun foydasi
Google Classroom	Adabiy materiallarni ulashish, elektron topshiriqlar va viktorinalar yaratish, muhokama forumlarini tashkil etish.	Talabalar uchun dars jarayonini tizimlashtirish, o'qituvchi sifatida onlayn kurslar yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.
Kahoot/Quizizz	Adabiy o'yinlar va interfaol testlar orqali bilimlarni mustahkamlash.	O'quvchilarda motivatsiya va raqobat muhiti yaratish, o'qituvchilarda o'yinli o'qitish usullarini o'zlashtirish.
Padlet	Adabiy matnlar asosida guruhviy muhokama va g'oyalar devorini yaratish.	O'qituvchilar uchun interaktiv loyihalarni boshqarish va guruhlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.
Canva va Genially	Adabiy xaritalar, taqdimotlar va vizual materiallar tayyorlash.	Talabalarda kreativ yondashuv, vizual pedagogika ko'nikmalari va adabiy tahlilni jonlantirish mahoratini rivojlantirish.
ZiyoNet elektron kutubxonasi	Klassik va zamonaviy adabiyotlarga bepul kirish, interfaol dars ishlanmalaridan foydalanish.	Bo'lajak o'qituvchilar uchun adabiy manbalar bazasini kengaytirish va interfaol materiallar bilan ishlash imkoniyatini yaratish.

Ushbu vositalar yordamida bo'lajak o'qituvchilar nafaqat adabiy bilimlarni o'rganadi, balki darslarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etishga tayyorlanadi. Ayniqsa, Kahoot, Quizizz kabi o'yin elementlari dars jarayonini jonlantirsa, Canva va Genially vizualizatsiya orqali adabiy tahlilni yanada tushunarli va estetik qiladi.

Raqamli resurslar yordamida adabiy kompetensiyani rivojlantirishning samaradorligini aniqlash maqsadida bir nechta pedagogik tajribalar o'tkazilgan (2022–2023 o'quv yilida Toshkent davlat pedagogika universiteti va Nukus davlat pedagogika institutida). Quyidagi jadval tajriba guruhlar bo'yicha adabiy kompetensiya elementlarining (adabiy bilim, kreativ tahlil, tanqidiy fikrlash, dars ishlanmasi yaratish) o'zgarishini ko'rsatadi:

2-jadval: Raqamli resurslardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarning adabiy kompetensiyasi rivojlanish dinamikasi (foizlarda)

Ko'rsatkich	Tajriba boshlanishida	Tajriba yakunida (raqamli vositalarsiz)	Tajriba yakunida (raqamli vositalar bilan)
Adabiy bilim va matnni tahlil qilish	48%	62%	81%
Kreativ tahlil va vizualizatsiya	35%	55%	79%
Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari	41%	58%	84%
Mustaqil dars ishlanmasi yaratish	29%	47%	76%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli vositalardan foydalanilgan guruhda adabiy kompetensiyaning barcha ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, kreativ tahlil (79%) va tanqidiy fikrlash (84%) kabi ko'nikmalar an'anaviy usullar bilan taqqoslaganda yuqori natijaga erishgan. Bu esa raqamli texnologiyalar yordamida adabiy ta'limning samaradorligi va interfaol o'qituvchilik yondashuvini shakllantirish imkonini yaqqol ko'rsatadi.

Bundan tashqari, raqamli resurslar yordamida tayyorlangan dars ishlanmalari va adabiy tahlil loyihalari (multimedia taqdimotlar, interfaol xaritalar, mualliflik videoproektlari) o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va ishtirokini oshirgan, bo'lajak o'qituvchilarda esa metodik kreativlik va zamonaviy dars tuzish malakasini rivojlantirgan. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni adabiy ta'limga tatbiq etish pedagogik universitetlarda o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida adabiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish nafaqat ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, balki pedagogik faoliyat sifatini oshirishning ham muhim omilidir. Raqamli platformalar, elektron kutubxonalar, interfaol dasturlar va multimedia vositalari o'qituvchilarga adabiy ta'limni yangi, kreativ va innovatsion shakllarda olib borish imkonini beradi. Bu orqali bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtiradi, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Shu bilan birga, raqamli resurslardan samarali foydalanish uchun pedagoglar o'z raqamli savodxonligini oshirishi, metodik ko'nikmalarini mustahkamlashi va yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga moslashtirish malakasini egallashi lozim. Bu jarayonda pedagogik universitetlarda maxsus kurslar, treninglar, seminarlar va amaliy loyihalar tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, milliy va xalqaro elektron kutubxonalar, o'quv platformalari va onlayn hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning adabiy kompetensiyasini yanada kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli resurslar yordamida adabiy kompetensiyani rivojlantirish – zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadigan samarali yo'ldir. Bu nafaqat o'qituvchilar malakasini oshiradi, balki o'quvchilar uchun ham adabiyot darslarini mazmunli, interfaol va zamonaviy ta'lim talablari darajasida tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanov S., To'xtayeva M. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
2. Xolmatov A. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2022.
3. Karimova N. Adabiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2020.
4. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.
5. Ziyonet elektron kutubxonasi. (<https://ziyonet.uz>)
6. Almazova N., Khalyapina L., Popova N. "The Integration of Digital Resources in Language and Literature Education." Education and Information Technologies, 2021.
7. Project Gutenberg Digital Library. (<https://www.gutenberg.org>)
8. Redecker C., Punie Y. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.